


10-dars. Ko'p xonali sonlarning o'qilishi va yozilishi



1. Sonni uning **grafik modeli** bo'yicha ayting. Unda nechta to'liq minglik bor? Sonning xonalari tarkibini ayting.



Agar birlar sinfining barcha xonalarida **0 raqami** turgan bo'lsa, u holda sonni o'qishda bu sinf aytilmaydi.

minglar sinfi			birlar sinfi		
yuz minglar	o'n minglar	minglar	yuzlar	o'nlar	birlar
2	3	4	0	0	0

234,000 – ikki yuz o'ttiz to'rt ming



2. Sonlarni o'qing.

123 000, 300, 29 000, 740 520, 680, 1 900, 81, 5, 13 000.



3. Sonlarni **raqamlar bilan** yozing:

- a) 71 ta minglik 517 ta birlik; b) 30 ta minglik;
d) 25 ta minglik 620 ta birlik; e) 15 ta minglik.



4. Voyaga yetgan echkemarning uzunligi 1 m 4 dm, bolasining uzunligi esa undan 12 dm qisqa. Voyaga yetgan echkemarning uzunligi bolasining uzunligidan necha marta uzun?



5. **Ifodalar** tuzing va ularning qiymatini hisoblang.

- a) 143 va 395 sonlari yig'indisidan 450 sonini ayirish.
- b) 903 va 417 sonlari ayirmasiga 159 sonini qo'shish.
- d) 63 va 9 sonlari bo'linmasini 6 soniga ko'paytirish.
- e) 4 va 6 sonlari ko'paytmasini 8 soniga bo'lish.



6. **Ifodalarning** qiymatini hisoblang. Javoblarga mos harflarni berilgan tartibda joylashtiring va O'zbekistonda yashaydigan ilonlarning nomini bilib oling.

R $3 \cdot 9 + 15$

O $80 - 8 \cdot 6$

CH $16 : 2 \cdot 8$

B $81 : 9 - 3$

X $(13 + 7) : 10$

O' $32 : 8 \cdot 9$

K $60 - 7 \cdot 7$

A $(40 - 10) : 3$

V $16 - 8 \cdot 2$

L $5 \cdot 8 + 25$

I $(9 : 3) + 28$

N $25 : 5 + 8$



11 36 65 0 32 42

11 32 6 42 10

64 10 42 2 31 65 32 13



7. Karvonda bir o'rkachli va ikki o'rkachli tuyalar ketmoqda. Ularning jami o'rkachlari soni 25 ta, oyoqlari soni esa 64 ta. Karvonda nechta bir o'rkachli tuya bor?



8. Ekologlar cho'lda 423 ta oq saksovul va oq saksovdan 117 ta ko'p qora saksovul ko'chati ekishdi. Ekologlar cho'lda jami nechta saksovul ko'chati ekishgan?

9. Dastlab **qavs ichidagi amallarni** bajaring, keyin tenglamalarni yeching.

$$x + (234 + 109) = 687$$

$$(545 + 217) - y = 392$$

